

"Qadriyatlar oyligi" doirasida Talabalar festivali bo'lib o'tdi

// 23.04.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qadriyatlar-oyligi-doirasida-talabalar-festivali-bo-lib-o-td>



RKTuning Toshkent shahridagi filialida "Qadriyatlar oyligi" doirasida Talabalar festivali bo'lib o'tdi

D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filialida "Qadriyatlar oyligi" doirasida Talabalar festivali o'tkazildi. Festivalda professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar hamda nuroniyalar ishtirok etishdi.

Tadbirda dastlab "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida vokal, raqs, rassomchilik ko'rik tanlovlari va sport, intellektual o'yinlarda g'alaba qozongan, jamoat ishlarida faol bo'lgan talaba yoshlar taqdirlandi.



Ko'tarinki ruhda o'tgan festivalda yoshlar o'zbek va turli millatlar milliy an'analarini o'zida aks etgan ko'rgazmalari bilan ishtirok etishdi. Osiyo va Yevropa millatlarining milliy kiyimlari, raqslari va taomlari ishtirokchilar va mehmonlarga namoyish etildi.









uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati